

TARBIYA USLUBLARINING BOLA PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI

Zakirova Zulfiya Turayevna

Sirdaryo viloyati Guliston tumani MMTB ga qarashli

33-sonli UO'TM amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: ushbu maqolada oiladagi tarbiya muhiti, ota-onaning farzandga bo'lgan munosabati, rag'batlantirish va jazolash usullarining bolaning ruhiy rivojlanishiga ta'siri, oilaviy tarbiya uslublarining (demokratik, avtoritar, liberal, beparvo) bolaning psixik rivojlanishi, emotsional holati va shaxsiy xususiyatlari shakllanishiga ta'siri nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Maqsadi — turli tarbiya uslublarining bola xulq-atvori, o'ziga bo'lgan ishonchi va ijtimoiy moslashuviga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy oqibatlarini o'rganishdan iborat.

Maqolada ota-ona va bola o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tipi, oiladagi muhit hamda bolaning ruhiy salomatligi o'rtasidagi bog'liqlik yoritilgan. Demokratik tarbiya uslubi sog'lom va mustaqil shaxs shakllanishiga xizmat qilsa, avtoritar va beparvo uslublar bolada qo'rquv, tajovuzkorlik yoki moslashishda qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi takidlangan. Oiladagi tarbiya muhiti, tarbiya uslublari shaxsning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Ushbu maqola va undagi tavsiyalar pedagoglar, psixologlar hamda ota-onalar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Tayanch so'zlar: oilaviy tarbiya, avtoritar uslub, liberal uslub, demokratik uslub, beparvo uslub, bola psixikasi, shaxs shakllanishi, emotsional rivojlanish, ota-ona munosabati, ijtimoiy moslashuv.

Oila – jamiyatning asosiy birligi bo'lib, bola shaxsining shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bolaning psixologik rivojlanishi ko'p jihatdan ota-onalarning tarbiya uslubiga bog'liq bo'ladi. Zamonaviy psixologiya fani oilaviy muhit va tarbiya usullarining bola ruhiyatiga ta'sirini o'rganishga katta e'tibor qaratmoqda.

Oilaviy tarbiyaning bola psixologiyasiga ta'siri tarbiya modellari – demokratik, avtoritar, liberal va beparvo tarbiya uslublarida bolaning emotsional, ijtimoiy va kognitiv rivojiga ta'sir ko'rsatadi.

Oilaviy tarbiya – bu ota-onalar tomonidan farzandlarga nisbatan ongli yoki ongsiz ravishda amalga oshiriladigan ta'sir va munosabatlar yig'indisidir. Psixologiya fanida oilaviy tarbiya bola shaxsini shakllantirishning eng muhim omili sifatida e'tirof etiladi. Bola dunyoga kelar ekan, u avvalo oila muhitida o'sadi, rivojlanadi va jamiyatga tayyorlanadi.

Psixolog Diana Baumrind o'tgan asrning 60-yillarida olib borgan tadqiqotlarida ota-onalarning farzandlariga munosabatini kuzatib, tarbiya uslublarining asosiy turlarini ilk bor tasniflagan. U ota-onalarning talabchanligi (demandingness) va ta'sirchanlik (responsiveness) darajasiga ko'ra to'rt asosiy tarbiya uslubini ajratib ko'rsatgan:

1. Demokratik yoki avtoritativ (authoritative) uslub – talabchanlik yuqori, ta'sirchanlik ham yuqori;
2. Avtoritar (authoritarian) uslub – qat'iy qoidalar yuqori, talabchanlik, ta'sirchanlik past.
3. Liberal (permissive) uslub – talabchanlik past, ta'sirchanlik yuqori;
4. Beparvo (neglectful) uslub – ham talabchanlik, ham ta'sirchanlik past.

Oilaviy tarbiyaning asosi sifatida ko'pincha ota-onalarning o'z bolalik tajribalari, madaniy an'analar, ijtimoiy normalar va shaxsiy e'tiqodlar xizmat qiladi. Ota-onalar tarbiya usulini tanlashda ko'pincha o'z ota-onalaridan ko'rgan namunaga tayanadi. Bu o'z navbatida tarbiya uslublarining avloddan-avlodga o'tish hodisasini keltirib chiqaradi.

O'zbek oilasida tarbiya an'analari asrlar davomida shakllangan bo'lib, ularda milliy qadriyatlar, diniy ko'rsatmalar va xalq pedagogikasining ta'siri yaqqol seziladi. An'anaviy o'zbek oilasida kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, jamoaviylik va axloqiy barkamollik tarbiyaning asosiy yo'nalishlarini tashkil etgan. Shu bilan birga, zamonaviy o'zbek oilalarida ham yangi tarbiya usublari va yondashuvlar keng tarqalmoqda.

Tarbiya uslubini belgilovchi omillar qatoriga quyidagilar kiradi: ota-onalarning ta'lim darajasi, iqtisodiy ahvoli, madaniy muhit, bolaning yoshi va temperamenti, oiladagi farzandlar soni va tartib o'rni. Barcha bu omillar birgalikda oiladagi tarbiya muhitini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Tarbiya jarayonida ota-onaning emotsional mavjudligi (emotional availability) ham katta ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onasi bilan emotsional jihatdan bog'liq bo'lgan bolalar ijtimoiy va kognitiv rivojlanishning yuqori ko'rsatkichlariga ega bo'ladi.

Psixologiya fanida tarbiya uslublarini tasniflashning bir necha yondashuvlari mavjud. Eng ko'p qo'llaniladigan tasnif Maccoby va Martin (1983) tomonidan Baumrind modeliga asoslanib ishlab chiqilgan to'rttalik tasnifdir. Ushbu tasnifda ota-onalar ikki o'lcham bo'yicha baholanadi:

Birinchi o'lcham – talabchanlik (demandingness): ota-ona farzanddan qanday darajada intizom, javobgarlik va muayyan xulq-atvorni talab qilishi.

Ikkinchi o'lcham – ta'sirchanlik (responsiveness): ota-onaning farzand ehtiyojlari, his-tuyg'ulari va muammolariga qanchalik sezgirlik bilan munosabat bildirishi.

Ushbu ikki o'lchamning kombinatsiyasiga ko'ra to'rt asosiy tarbiya uslubi ajratiladi:

Demokratik (avtoritativ) tarbiya uslubi – talabchanlik ham, ta'sirchanlik ham yuqori. Ota-onalar aniq qoidalar o'rnatadi, lekin ularni farzandga tushuntiradi. Bolaning fikrini tinglaydi, hissiyotlari inobatga olinadi. Intizom jazo emas, balki yo'l-yo'riq orqali ta'minlanadi.

Avtoritar tarbiya uslubi – talabchanlik yuqori, ta'sirchanlik past. Bu uslubda ota-onalar qat'iy qoidalar belgilaydi, so'zsiz itoatkorlikni talab qiladi va farzandning hissiyotlari va fikrlariga kam e'tibor beradi. "Senga nima deyishim kerak bo'lsa shuni qilasan!" tamoyili asosida ish ko'riladi.

Liberal tarbiya uslubi – talabchanlik past, ta'sirchanlik yuqori. Ota-onalar farzandni qo'llab-quvvatlaydi, uning har bir istaklarini bajarishga harakat qiladi, lekin intizom va chegaralar o'rnatmaydi. Bola deyarli cheklovsiz erkinlikda o'sadi.

Beparvo tarbiya uslubi – ham talabchanlik, ham ta'sirchanlik past. Ota-onalar farzandiga vaqt ajratmaydi, uning ehtiyojlariga e'tibor bermaydi. Bu uslub ko'pincha ota-onaning ruhiy muammolari, stress yoki o'ta band bo'lishi natijasida vujudga keladi.

Har bir tarbiya uslubi bolada turli psixologik xususiyatlarning shakllanishiga olib keladi. Shuning uchun ham ota-onalar qo'llaydigan tarbiya uslubini to'g'ri tanlash bolaning kelajakdagi psixologik salomatligi uchun juda muhimdir. Masalan, demokratik tarbiya uslubi psixologlar tomonidan bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun eng samarali uslub sifatida e'tirof etilgan. Bu uslubda ota-onalar aniq qoidalar o'rnatadi, lekin ularni qo'llashda farzandning fikrini ham inobatga oladi. Qoidalar buzilganda jazo emas, balki izohli muloqot va oqibatlarni tushuntirish yo'li tutiladi.

Demokratik tarbiya uslubi quyidagi asosiy xususiyatlarini qamrab oladi:

- Issiqqonlik va qo'llab-quvvatlash: ota-onalar farzandiga nisbatan muhabbatli, mehribon va qo'llab-quvvatlovchi bo'ladi;
- Aniq chegaralar va qoidalar: farzanddan nima kutilayotganligi aniq va izchil;
- Fikr almashish: bola ham o'z fikrini aytishga, savollar berishda rag'batlantiriladi;
- Mustaqillikni rag'batlantirish: bola asta-sekin mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatiladi;
- Oqibatlar bilan tarbiya: jazo o'rniga harakatlarning tabiiy va mantiqiy oqibatlarini tushuntirish;

Demokratik tarbiya sharoitida o'sgan bolalarda quyidagi ijobiy xususiyatlar kuzatiladi:

- Yuqori o'z-o'zini baholash: fikrini aytish imkoni va qo'llab-quvvatlash muhiti bolada o'z qiymatini anglash hissini mustahkamlaydi. Bunday bolalar o'zlariga ishonadi va o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay oladi.

- Rivojlangan ijtimoiy ko'nikmalar: ota-onasi bilan ochiq muloqot o'rnatgan bola boshqalar bilan ham munosabat qurishda mahoratli bo'ladi. U nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishni, murosaga kelishni va hamkorlikni o'rganadi.

- Akademik muvaffaqiyat: tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, demokratik tarbiya ko'rgan bolalar maktabda yuqori ko'rsatkichlarga erishadi. Ular o'qishda ichki motivatsiyaga ega bo'ladi va qiyinchiliklardan qo'rqmaydi.

- Emotsional intellekt: ota-onalari ularning hissiyotlarini inobatga olgan bolalar o'zi va boshqalarning hissiyotlarini anglashda va boshqarishda mohir bo'ladi. Bu ularning hayotdagi muvaffaqiyatiga katta hissa qo'shadi.

- Mustaqillik va mas'uliyat: demokratik muhitda o'sgan bolalar mustaqil fikrlay oladi, o'z qarorlariga mas'uliyat bilan yondashadi va hayotdagi qiyinchiliklarni yengishda chidamli bo'ladi.

Avtoritar tarbiya uslubi asrlar davomida ko'plab madaniyatlarda keng qo'llanib kelgan. Ushbu uslubda ota-onalar farzandan to'liq itoatkorlik talab qiladi, qoidalar muzokarasiz bajarilishi shart deb hisoblaydi va intizomni ta'minlashda ko'pincha jazo usullaridan foydalanadi. "Men (ota-onamiz) bilganimni qilaman" tamoyili bu uslubning asosini tashkil etadi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, avtoritar tarbiya sharoitida o'sgan bolalarda bir qator o'ziga xos psixologik xususiyatlar kuzatiladi. Masalan, ijobiy tomonlari, bunday bolalar odatda intizomli, tashkilotchanligi yuqori va mas'uliyatni his qila oladigan bo'ladi. Ular qoidalarga rioya qilishga o'rgangan bo'ladi va ijtimoiy tartib-intizomga moslashgan bo'ladi. Ammo uning salbiy oqibatlarini ham mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

– past o'z-o'zini baholash (low self-esteem), doimiy tanqid va nazorat ostida o'sgan bolalar o'z qobiliyatlariga ishonchsizlik his qiladi;

– ijodiy tafakkurning cheklanishi (qoidalar doirasidan chiqmaslik o'rganilganligi sababli bola mustaqil fikrlash va ijodiy qarorlar qabul qilishda qiyinchilik sezadi);

- tashqi nazoratga qaramlik (bola ota-ona ko'zi bo'lmasagina yomon xulq-atvorga o'tishi mumkin, chunki u ichki nazoratni emas, balki tashqi nazoratni o'rgangan);
- emotsional muammolar (depressiya, tashvishlanish va tajovuzkorlik kabi emotsional muammolar avtoritar tarbiya ko'rgan bolalarda ko'proq uchraydi);
- muloqot qiyinchiliklari (ota-onalar bilan ochiq muloqot yo'qligi bolaga kelajakda ham boshqalar bilan munosabat o'rnatishda qiyinchilik yaratadi);

Baumrind va boshqa tadqiqotchilarning ishlari shuni ko'rsatdiki, avtoritar tarbiya bola shaxsining rivojlanishiga ko'pincha salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, bolaning ijodkorligi, mustaqilligi va emotsional intellekti rivojlanishida jiddiy to'siqlar paydo bo'ladi. Madaniy kontekst ham bu masalada muhim rol o'ynaydi. Ba'zi tadqiqotlar ko'rsatadiki, qat'iy avtoritar tarbiya ba'zi Osiyo va Afrika madaniyatlarida kamroq salbiy oqibatlar beradi, chunki bu madaniyatda bunday tarbiya uslubi normativ hisoblanadi va bolalar buni sevgisizlik deb qabul qilmaydi. Biroq shu bilan birga, ushbu madaniyatda ham demokratik uslub afzalroq ekanligi ma'lum bo'lmoqda.

Liberal (ruxsat beruvchi) tarbiya uslubida ota-onalar farzandiga nisbatan juda mehribon va qo'llab-quvvatlovchi bo'ladi, lekin intizom va chegaralar o'rnatishda zaif bo'ladi. Ular farzandining har bir xohishini bajarishga harakat qiladi va unga "yo'q" deyishdan qochadi. Liberal tarbiya ko'rgan bolalarda quyidagi xususiyatlar kuzatiladi:

- ijodiylik va mustaqillik (erkin muhitda o'sgan bolalar ko'pincha ijodkor va mustaqil bo'ladi);
- o'z-o'zini nazorat qilishning pastligi (chegara va qoidalar bo'lmaganligi sababli bola o'z xulq-atvorini nazorat qilishda qiyinchilik sezadi);
- sabrsizlik va frustrasiya (istalgan narsani darhol olishga o'rgangan bola kechikish yoki rad etishga bardosh bera olmaydi);
- ijtimoiy muammolar (tengdoshlari va boshqalar bilan munosabatda bola o'z talablarini boshqalarga ham qo'yishga harakat qiladi, bu esa nizolarga olib keladi);

– akademik qiyinchiliklar (intizom va mashq qilishni talab qiladigan o'quv jarayonida bola qiyinchilik sezadi);

Beparvo tarbiya uslubi barcha tarbiya turlari ichida eng zararli hisoblanadi. Ota-onalar farzandiga vaqt ajratmaydi, uning ehtiyojlariga e'tibor bermaydi va hissiy jihatdan mavjud emas. Bu ko'pincha ota-onaning psixologik muammolari, moddiy qiyinchiliklar yoki bilgisizlik natijasida yuzaga keladi.

Beparvo tarbiya ko'rgan bolalarda eng og'ir psixologik oqibatlar kuzatiladi:

– bog'lanish muammolari (attachment issues) (bola ota-onasi bilan mustahkam hissiy aloqa o'rnatolmaydi va keyinchalik ham yaqin munosabatlar qurishda qiyinchilik sezadi);

– o'z-o'zini past qadrlash (e'tiborsizlik bolada o'zini sevimli va qadrli emasdek his qilishiga olib keladi);

– xulq-atvor muammolari (tajovuzkorlik, intizombuzarlik va deviant xulq-atvor ko'proq uchraydi);

– ruhiy salomatlik muammolari (depressiya, tashvishlanish buzilishlari va PTSD (travma) riski yuqori bo'ladi);

– ijtimoiy moslashuv qiyinchiligi (jamiyatda o'z o'rnini topish va sog'lom ijtimoiy munosabatlar o'rnatish ular uchun juda qiyin bo'ladi);

Bola emotsional rivojlanishi uning kelajakdagi ruhiy salomatligi, munosabatlari va hayot sifatining asosini tashkil etadi. Ota-onalar bilan o'rnatiladigan dastlabki hissiy aloqa – bog'lanish (attachment) bolaning butun hayoti davomida uning psixologik holatiga ta'sir qiladi. Jonni Bowlbi (John Bowlby) ning bog'lanish nazariyasiga ko'ra (attachment theory) bola hayotining dastlabki yillarida ota-onasi bilan mustahkam va xavfsiz bog'lanish o'rnatishi uning psixologik rivojlanishi uchun asosdir. Ushbu xavfsiz bog'lanish tarbiya uslubi bilan chambarchas bog'liq.

Demokratik tarbiya – xavfsiz bog'lanish (secure attachment). Bola ota-onasi bilan mustahkam hissiy aloqada bo'ladi, uning ehtiyojlari doimiy ravishda qondiriladi. Bunday bolalar yangi vaziyatlar va odamlarni dadillik bilan o'rganadi.

Avtoritar tarbiya – shartli bog'lanish (anxious-avoidant attachment). Bola ota-onasini rag'batlantirish uchun xulq-atvorini nazorat qiladi, o'z hissiyotlarini ichiga yutadi. Kattalar bilan munosabatda ham shunday naqsh saqlanib qoladi.

Liberal tarbiya – tashvishli bog'lanish (anxious-ambivalent attachment). Bola ota-onasining hissiy mavjudligiga amin bo'lolmaydi, chunki ota-onaning munosabati izchil emas. Bu esa bolada haddan tashqari qiyinchlik yoki keskin nafrat kabi qarshi-zid hissiyotlarga olib keladi.

Beparvo tarbiya – tartibsiz bog'lanish (disorganized attachment). Bola o'z ehtiyojlarini qondirish uchun ota-onasiga murojaat qila olmaydi. Bu eng og'ir bog'lanish turi bo'lib, kelajakda jiddiy psixologik muammolarga zamin yaratadi.

Emotsional regulyatsiya – ya'ni o'z hissiyotlarini anglash va boshqarish qobiliyati ham tarbiya uslubiga bog'liq ravishda shakllanadi. Demokratik tarbiyada ota-onalar farzandining hissiyotlarini nomlashga, ularni tushunishga va sog'lom yo'llar bilan ifodalashga yordam beradi. Avtoritar tarbiyada esa hissiyotlar ko'pincha tiqilib qoladi yoki inkor etiladi, bu esa emotsional muammolarga olib keladi.

MUAMMO YUZASIDAN XORIJIY TAJRIBALARNING O'RGANILGANLIGI

Davlat	Tarbiya uslubining xususiyati	Natija
Yaponiya	"Ikuban" uslubi: bolaga 5 yoshgacha "qirol", 15 yoshgacha "qul", keyin "do'st" deb qaraladi	Kuchli jamoaviylik va intizom shakllanadi

Davlat	Tarbiya uslubining xususiyati	Natija
Skandinaviya	"Lagom" va erkinlik: bolaning shaxsiy hududiga hurmat, jismoniy jazo mutlaqo taqiqlangan	Mustaqillik va yuqori darajadagi o‘ziga ishonch
AQSH	Individualizm va rag‘bat: har bir yutuq uchun bolani maqtash va tanlov imkoniyatini berish	Kreativlik va raqobatbardoshlik

QIYOSIY TAHLIL. O‘zbekistonning mentaliteti va sharqona qadriyatlarini hisobga olgan holda quyidagi modelni ishlab chiqish mumkin:

Hurmat va muloqot balansi: kattaga hurmat saqlangan holda, bolaning fikri "oilaviy kengash" larda tinglanishi shart.

- **Mas’uliyatni bo‘lishish:** bolaga kichikligidan o‘z shaxsiy gigiyenasi va o‘qishi uchun javobgarlikni topshirish (G‘arb tajribasi), lekin oilaviy birdamlikni (Sharq tajribasi) saqlab qolish.

- **Hissiy intellekt (EQ) darslari:** ota-onalar uchun "Bola bilan qanday gaplashish kerak?" mavzusida qisqa kurslar yoki mahallalarda psixologik treninglar tashkil etish.

Turli tarbiya uslublarining bola psixologiyasiga ta'siri o'rganilishi natijasida quyidagi asosiy natijalar aniqlandi:

-birinchi natija: demokratik tarbiya uslubi bolaning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishi uchun eng qulay sharoitni yaratadi. Ushbu uslubda tarbiyalangan bolalar

akademik muvaffaqiyat, emotsional intellekt va ijtimoiy moslashuvchanlik ko'rsatkichlari bo'yicha boshqa guruhlardan sezilarli darajada ustun turadi.

-ikkinchi natija: avtoritar tarbiya uslubi qisqa muddatda intizom va tartibni ta'minlashda, uzoq muddatda bolaning o'z-o'zini baholash, mustaqillik va ijodiy tafakkur rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday bolalarda stress va tashvishlanish darajasi yuqoriroq kuzatiladi.

-uchinchi natija: liberal tarbiya ko'rgan bolalar erkin va ijodkor bo'lishi mumkin, lekin o'z-o'zini nazorat qilish, intizom va ijtimoiy munosabatlarda sezilarli qiyinchiliklarni boshdan kechiradi. Bu uslub keyinchalik deviant xulq-atvorlikni oshiradi.

-to'rtinchi natija: beparvo tarbiya eng og'ir psixologik oqibatlariga olib keladi. Bunday bolalarda depressiya, tashvishlanish, aggresivlik va munosabat muammolari katta yoshda ham saqlanib qoladi.

Shu o'rinda ota-onalarga amaliy tavsiyalar berib o'tamiz:

1. Farzandingizni tinglang va uning hissiyotlarini tan oling. Bolaning his-tuyg'ulari inkor etilmasin, ular to'g'ri yoki noto'g'ri emas – ular shunchaki mavjud.

2. Aniq, tushunarli va izchil qoidalar o'rnating. Qoidalar bolaga tushuntirilgan holda belgilansin va ota-onalarning ikkalasi ham ularni bir xil tarzda qo'llaydi.

3. Jazo o'rniga oqibatlariga yo'naltiring. "Sen yomon bola!" o'rniga "Bu xulq-atvorning natijalari qanday bo'lishi mumkin?" deb savol bering.

4. Sevgi va mehr ko'rsating. Jismoniy va so'z orqali ifodalangan sevgi bolaning o'z-o'zini baholamog'iga asos bo'ladi.

5. Psixologik yordam so'rang. Tarbiya jarayonida qiyinchilik his qilsangiz, bolalar psixologi yoki oila maslahatchisiga murojaat qilishdan tortinmang.

6. O'zingizni nazorat qiling. Ota-onalarning ruhiy holati to'g'ridan-to'g'ri farzandga ta'sir qiladi. O'z stresslaringizni boshqarishni o'rganing.

7. Bolaning yoshini hisobga oling. Turli yoshdagi bolalar uchun turli yondashuvlar kerak. 3 yoshli bola bilan 13 yoshli o'smirga bir xil tarzda munosabatda bo'lib bo'lmaydi.

8. Madaniy muvozanatni saqlang. An'anaviy milliy qadriyatlarimizni asrab, zamonaviy ilmiy bilimlarni ham tarbiyaga tatbiq eting.

Muvaffaqiyatli tarbiya — bu bolani jazolash yoki uni hamma narsadan cheklash emas, balki unga o'z yo'lini topishda yo'l ko'rsatuvchi mayoq bo'lishdir. O'zbekiston sharoitida biz an'anaviy odob-axloqni zamonaviy psixologik usullar bilan birlashtirsak, ham ma'nan, ham intellektual baquvvat avlodni tarbiyalay olamiz.

Aniqlangan asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

- birinchidan, oilaviy tarbiya uslubi bola psixologiyasining shakllanishida asosiy determinantlardan biri hisoblanadi. Ota-onalarning talabchanligi va ta'sirchanligining nisbati bolaning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishining yo'nalishini belgilaydi.

- ikkinchidan, demokratik tarbiya uslubi bolaning har tomonlama sog'lom rivojlanishi uchun optimal sharoitni yaratadi. Bu uslub bola shaxsining mustaqil, mas'uliyatli va emotsional jihatdan sog'lom bo'lib shakllanishiga yordam beradi.

- uchinchidan, avtoritar tarbiya uslubi qisqa muddatli intizomni ta'minlasa-da, bolaning o'z-o'ziga ishonchi, ijodiy tafakkuri va emotsional intellektiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uzoq muddatda bu uslub turli psixologik muammolarga zamin yaratadi.

- to'rtinchidan, liberal tarbiya erkinlik va ijodkorlikni rag'batlantirsa-da, o'z-o'zini nazorat qilish, intizom va ijtimoiy munosabatlar sohasida jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

- beshinchidan, beparvo tarbiya uslubi eng og'ir psixologik oqibatlariga olib keladi va har qanday sharoitda ham oldini olish kerak bo'lgan tarbiya turi hisoblanadi.

- oltinchidan, tarbiya uslubini madaniy kontekstdan ajratib bo'lmaydi. O'zbek oilasida milliy qadriyatlar, an'analar va diniy ko'rsatmalarni zamonaviy psixologik bilimlar bilan uyg'unlashtirish eng samarali tarbiya modelini yaratishi mumkin.

“Jazo-qadrsizlik asosiga qurilgan tarbiya usulidir”

(Adem Gunesh)

Jazo – bu kamsitish harakatidir. Kamsitish bilan tarbiyalangan bolalar sog‘lom shaxs bo‘lib yetishishi, jazo bilan tarbiyalanganlarni voyaga yetgan yoshida jazosiz tarbiyalanishi mumkin emas. Jazo jazo olganni ham, berganni ham bir-biridan bezdiradi. Insonning eng ma’nosiz harakatlari “Birovni nazorat ostida ushlab turish” dir. Bolani jazo bilan tarbiyalashga urinishning natijasi katta bir umidsizlikdir. Jazolovchining niyati qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, alaloqibat jazo bolani ranjitadi, kamsitadi.

Itoatkorlik – bu ichki qarshilik sukunatidan shakllangan “nafaol xatti-harakat” dir.

Bolaning dastlabki 4 yoshgacha bo‘lgan davri tarbiya yoshi emas, balki uning erkinligini to‘liq his qilib, o‘zini rivojlantiradigan palladir. Agar bola hissiy dunyoda farovonlik holatida bo‘lsa, uning ovqatlanishi muntazam, uyqusi sifatli, fiziologik rivojlanishi o‘z o‘rnida bo‘ladi. Bola hissiy olamda farovonlik holatini boshdan kechirsa, uning ijtimoiy rivojlanishi me’yorida bo‘ladi. Rivojlanishning uzluksizligi ichki ishtiyoqqa bog‘liqdir.

O‘rganish – hayajonli ichki ishtiyoq bilan amalga oshiriladi. Farzandlarini himoya qilish uchun har doim qanotlarini yoyib, ularga nimadir bo‘lishidan xavotirda bo‘lgan otalarning farzandlari, garchi ular kuchli ko‘rinsa ham chuqur tashvishlanish xususiyatiga egalar...

Ushbu loyiha natijalaridan kelib chiqqan holda, ota-onalarga, pedagoglar va psixologlarga quyidagi umumiy tavsiyalar beriladi:

- tarbiya jarayonini ilmiy bilimlar asosida qo‘ying, bolaning individual xususiyatlarini hisobga oling, hissiy aloqani mustahkamlang va zarur hollarda mutaxassis yordamidan foydalaning.

Oila – jamiyatning asosi, farzand esa kelajagimizning poydevori. Har bir bola sog‘lom, baxtli va barkamol o‘lishi uchun to‘g‘ri tarbiya muhiti yaratish har bir ota-ona va jamiyatimizning asosiy mas’uliyatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baumrind, D. (1966). Effects of authoritative parental control on child behavior. *Child Development*, 37(4), 887–907.
2. Baumrind, D. (1971). Current patterns of parental authority. *Developmental Psychology Monographs*, 4(1), 1–103.
3. Maccoby, E. E., & Martin, J. A. (1983). Socialization in the context of the family: Parent-child interaction. *Handbook of Child Psychology*, 4, 1–101.
4. Hasanova, D. B. (2020). Zamonaviy oiladagi tarbiya muammolari va ularni hal etish yo'llari. *Psixologiya jurnali*, 3(2), 45–58.
5. Azimova, N. R. (2021). Ota-ona va bola munosabatlari psixologiyasi. Toshkent: Akademnashr.
6. Adem Gunesh . Jazosiz tarbiya . “Yangi asr avlodi” 2023.